



PROBLEMS AND SOLUTIONS FOR ENSURING THE IDEOLOGICAL SECURITY OF YOUTH IN THE MODERN INFORMATION SPACE

Sardor Ashurov

Researcher

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Ideology, ideological threat, youth, youth spirituality, soft power, cultural influence, ideological security, ideological immunity, values and traditions.

Received: 19.03.26

Accepted: 20.03.26

Published: 21.03.26

Abstract: This article provides a scientific and theoretical analysis of the role of national ideology and spiritual-moral education in shaping the ideological immunity of youth in the context of globalization and digital information environments. The study examines emerging ideological threats within the information space, the strategies of “soft power,” and the influence of mass culture and digital platforms on the consciousness of young people. Furthermore, it analyzes national historical heritage, the spiritual and philosophical views of great ancestors, as well as the legal and regulatory framework of the Republic of Uzbekistan aimed at implementing youth policy and ensuring information security. The findings indicate that the integration of national ideology and spiritual education serves as a crucial strategic factor in developing critical thinking among youth, enhancing resilience against harmful ideological influences, and strengthening the socio-political stability of society.

ZAMONAVIY AXBOROT MAKONIDA YOSHLAR MAFKURAVIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING MUAMMOLARI VA YECHIMLAR

Sardor Ashurov

Mustaqil izlanuvchisi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: Mafkura, mafkuraviy tahdid, yoshlar, yoshlar maʼnaviyati, yumshoq kuch, madaniy taʼsir, mafkuraviy tahdid, mafkuraviy immunitet, qadryat va anʼanalar.

Annotatsiy: Mazkur maqolada globallashuv va raqamli axborotlashuv sharoitida yoshlarning mafkuraviy immunitetini shakllantirishda milliy mafkura va maʼnaviy tarbiyaning oʻrni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida axborot makonida yuzaga kelayotgan gʻoyaviy tahdidlar, “yumshoq kuch” strategiyalari, ommaviy madaniyat va raqamli platformalar orqali yoshlar ongiga koʻrsatilayotgan taʼsirlar ochib berilgan. Shuningdek, milliy tarixiy meros, buyuk ajdodlarimizning maʼnaviy-falsafiy qarashlari hamda Oʻzbekiston Respublikasida yoshlar siyosati va axborot xavfsizligini taʼminlashga qaratilgan huquqiy-meʼyoriy hujjatlar tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, milliy mafkura va maʼnaviy tarbiyaning uzviyligi yoshlarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, zararli gʻoyaviy taʼsirlarga qarshi barqarorlikni taʼminlash hamda jamiyatning ijtimoiy-siyosiy barqarorligini mustahkamlashda muhim strategik omil hisoblanadi.

ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ИДЕОЛОГИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ МОЛОДЕЖИ В СОВРЕМЕННОМ ИНФОРМАЦИОННОМ ПРОСТРАНСТВЕ

Сардор Ашууров

Независимый исследователь

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Идеология, идеологическая угроза, молодежь, духовность молодежи, мягкая сила, культурное влияние, идеологическая безопасность, идеологический иммунитет, ценности и традиции.

Аннотация: В данной статье проводится научно-теоретический анализ роли национальной идеологии и духовно-нравственного воспитания в формировании идеологического иммунитета молодежи в условиях глобализации и цифровизации информационного пространства. В ходе исследования раскрываются идеологические угрозы, возникающие в информационном пространстве, стратегии «мягкой силы», а также влияние массовой

культуры и цифровых платформ на сознание молодежи. Кроме того, анализируются национальное историческое наследие, духовно-философские взгляды великих предков, а также нормативно-правовые документы Республики Узбекистан, направленные на реализацию молодежной политики и обеспечение информационной безопасности. Результаты исследования показывают, что взаимосвязь национальной идеологии и духовного воспитания является важным стратегическим фактором в развитии критического мышления молодежи, обеспечении устойчивости к деструктивным идеологическим воздействиям и укреплении социально-политической стабильности общества.

Kirish. Zamonaviy globallashuv va shiddatli axborotlashuv davrida yoshlar ongida milliy g'oya, vatanparvarlik va yuksak ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirish strategik zaruratga aylandi. Bugungi kunda xalqaro maydondagi ziddiyatlar nafaqat moddiy resurslar, balki jamiyatning asosiy geosiyosiy makonlari, xususan, axborot-mafkuraviy va kiber-makonlar ustidan nazorat o'rnatish shakliga o'tmoqda. Ushbu jarayonning markazida hududlarni egallash emas, balki jamiyatning, ayniqsa, aholining eng faol qatlami bo'lgan yoshlarning dunyoqarashini o'zgartirish, ularning geosivilizatsion kodini (milliy o'zligini) yemirish va mafkuraviy bo'shliq yaratish maqsadi yotadi. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida "ommaviy madaniyat" ostida ahloqiy buzilish, zo'rvonlik, individualizm va egotsentrizm kabi xatarlar tarqalishi mumkinligini, shuningdek, bu jarayon boshqa xalqlarning ming yillik an'ana va qadriyatlari, turmush tarzining ma'naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo'porishga qaratilgan xatarli tahdidlar odamni tashvishga solmay qo'ymaydi deb ta'kidlagan. Zero, mafkuraviy betaraflik yoki g'oyaviy bo'shliq majud bo'lgan joyda begona va destruktiv qarashlarning ildiz otishi uchun qulay muhit yuzaga keladi. Ayniqsa, aholisining katta qismini yoshlar tashkil etadigan O'zbekistonda axborot xavfsizligini ta'minlash nafaqat texnologik, balki fundamental ma'naviy-strategik masala hisoblanadi.

So'nggi o'n yillikda xalqaro dinamika tubdan o'zgardi: identitet, qadriyatlar, madaniy ta'sir va kommunikatsiya texnologiyalari kabi nomoddiy omillar siyosiy ta'sirning muhim manbalaridan

biriga aylandi. Amerikalik siyosatshunos Jozef Nay tomonidan ilgari surilgan yumshoq kuch nazariyasini amalda qoʻllagan holda bugungi dunyoda davlatlar yoki guruhlar oʻz maqsadlariga erishish uchun majburlash, qurol ishlatish emas balki jozibadorlik orqali oʻziga ergashtirishga harakat qilishmoqda. Yaʼni tashqi mafkuraviy markazlar yoshlar ongiga toʻgʻrida -togʻri hujum qilmaydi. Aksincha, kino, musiqa, moda, ijtimoiy tarmoqlardagi “trendlar” va turmush tarzi orqali oʻz qadriyatlarini jozibali qilib koʻrsatadi. Yosh bola yoki oʻspirin oʻzi bilmagan holda oʻsha jozibador kontentni isteʼmol qila turib, uning zamiridagi begona mafkurani qabul qiladi. Natijada, u oʻzining milliy qadriyatlarini "eskirgan", begona qarashlarni esa “zamonaviy” deb hisoblay boshlaydi. Mafkuraviy immunitet aynan shu nuqtada “maʼnaviy filtr” vazifasini oʻtaydi. Agar yoshlarda bu immunitet shakllangan boʻlsa, ular tashqaridan kelayotgan jozibador “yumshoq kuch”ning ortidagi asl maqsadni koʻra oladi. Yaʼni: nima foydali-yu, nima zararli ekanini ajratadi, ommaviy madaniyatning yaltiroq qobigʻi ichidagi maʼnaviy qashshoqlikni anglaydi, oʻz milliy oʻzligini saqlagan holda zamonaviylikka intiladi. Shu maʼnoda, yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish — ularni zamonaviy dunyodan uzib qoʻyish emas, balki Jozef Nay taʼriflagan “yumshoq kuch” xurujlari sharoitida oʻz milliy qiyofasini saqlab qolish va mustaqil fikrlash qobiliyatini tarbiyalashdir.

Maʼnaviy tarbiya jarayonida ajdodlarimiz – Al-Xorazmiy, Ibn Sino, Amur Temur kabi shaxslarning merosi shunchaki tarixiy maʼlumot emas, balki shaxsiy namuna va mafkuraviy tayanch nuqtasi sifatida xizmat qilishi lozim. Shu maʼnoda, milliy oʻzlikni anglash, mamlakat tarixini chuqur oʻrganish va gumanitar fanlar sohasidagi tadqiqotlarni rivojlantirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev taʼkidlaganidek, “Maʼnaviyat boshqa sohalardan oʻn qadam oldinda yurishi, yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi kerak” . Zero, davlat mafkurasi jamiyatning maʼnaviy holati va milliy xavfsizligining poydevori hisoblanadi.

Shu sababli, mazkur maqolada milliy mafkura va maʼnaviy tarbiyaning yoshlar mafkuraviy immunitetini shakllantirishdagi oʻrni hamda axborot makonidagi xavfsizlikni taʼminlash ahamiyati ilmiy tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida yoshlarning gʻoyaviy barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan huquqiy va maʼnaviy mexanizmlar asoslab beriladi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Axborot jamiyatida oʻzlikni saqlab qolish muammolarini tahlil qilishda xorijiy olimlar orasida Kaliforniya universiteti professori, sotsiolog, axborot jamiyati nazariyasining asoschilaridan biri Manuel Castellsning qarashlari alohida oʻrin tutadi. Olim oʻzining “The Power of Identity” asarida axborot jamiyatida ijtimoiy ong va qadriyatlar tizimi anʼanaviy institutlar orqali emas, balki axborot tarmoqalari, madaniy diskurslar va

kommunikativ makon orqali shakillanishini ta'kidlaydi. Castellsga ko'ra, globallashuv sharoitida o'zlik inqirozi yuzaga keladi va bu ayniqsa yoshlar ongida yaqqol namoyon bo'ladi. "Z-avlod" vakillari raqamli makonda faol ishtirok etar ekan, ularning dunyoqarashi milliy qadriyatlar bilan bir qatorda transmilliy va ommaviy madaniyat g'oyalari ta'sirida shakillanmoqda. Natijada, yoshlar ongida milliy mafkura bilan mos kelmaydigan qarashlar paydo bo'lishi xavfi ortadi. Shu nuqtai nazardan, axborot makonidagi xavfsizlikni ta'minlashda faqat texnologik choralar emas, balki g'oyaviy va ma'naviy mexanizmlarning ham muhim ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi va ilmiy jihatdan tahlil qilish imkonini beradi.

Konstruktivizm maktabi vakili Aleksandr Vendt o'zining "Social Theory of International Politics" asari, shuningdek, "Anarchy is What States Make of It" maqolasida asosan milliylik xavfsizligi, ijtimoiy konstruksiya va g'oyaviy ta'sir masalalari chuqur tahlil qilingan. Vendtning fikricha, an'ana va institutlar tashqi ko'rinishda davlatlarning harakatlarini shakllantiradi, lekin ularning ichki motivatsiyasi va qaror qabul qilish jarayoni g'oyaviy konstruksiyalar orqali belgilanadi.

Mahalliy olimlardan J.Y.Yaxshilikov va N.E.Muhammadiyevlar milliy g'oya va mafkura tushunchalarini chuqur tahlil qiladi va ularning jamiyat hayotidagi o'rni, shakllanish jarayonlari hamda ma'naviy tarbiya va yosh avlodni tarbiyalashdagi ahamiyatini o'rganadi. Tahlillarida olimlar milliy mafkura fuqarolarni ma'naviy jihatdan mustahkamlashi, milliy birdamlikni ta'minlashi va global g'oyaviy ta'sirlardan himoyalaniish vositasi sifatida ko'rsatiladi. Shu bilan birga, tarixiy, falsafiy va ijtimoiy tahlil, qiyosiy usul hamda kontent tahlili metodlarini qo'llash orqali milliy g'oya va mafkuraning nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etadi.

Tadqiqotda milliy mafkura va ma'naviy tarbiya orqali yoshlarning mafkuraviy immunitetini shakllantirish masalasi nazariy tahlil, tarixiy-falsafiy yondashuv metodlari orqali o'rganildi. Shu bilan birga, mahalliy va xalqaro tajribalar asosida axborot makonida xavfsizlikni ta'minlashning samarali mexanizmlari tahlil qilindi.

Muhokama. Tarixning barcha davrida yangicha, mustaqil tafakkurga jamiyatning o'zi ehtiyoj sezishi obyektiv zarurat ekanligini kuzatishimiz mumkin. O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan kundan boshlab, bu masala davlat siyosatini ustuvor yo'nalishiga aylandi. Mustaqillik shunchaki siyosiy tushuncha emas, u har bir fuqoroning ongi va qalbida o'z aksini topishi lozim. Shubhasiz, mustaqillikni mustahkamlashning muhim shartlaridan biri bu xalqni mafkuraviy qurollantirishdan iborat. chunki, bugungi murakkab geosiyosiy voqelikda "mafkuraviy poligonlar" o'zining vayronkor salohiyati bo'yicha yadroviy qurol sinovi maydonlaridan ham xavfliroq ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu xavfning eng murakkab jihati uning

yashirin xarakterga ega ekanligidadir. Agar harbiy tajovuz yoki iqtisodiy sanksiyalar jamiyat tomonidan darhol sezilib, unga nisbatan kollektiv qarshilik reaksiyasi uyg'otsa, mafkuraviy bosim "yumshoq" va sezilarsiz shaklda amalga oshiriladi. Uning halokatli oqibatlari inson ongida darhol emas, balki qadriyatlar tizimi bosqichma-bosqich yemirilishi va milliy o'zlikning begonalashuvi natijasida uzoq muddatli istiqbolda namoyon bo'ladi. Mafkura – bu shunchaki g'oyalar yig'indisi emas, balki siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, falsafiy qarashlarni o'zida jamlovchi murakkab hamda serqirra tizim hisoblanadi. Amerikalik strateg va siyosatshunos Zbignev Bjezinskiy fikriga ko'ra, mafkura siyosiy murosa yoki qarama-qarshilik manbai sifatida faoliyat yuritishi, intellektual kelishuv yoki qarama-qarshilikni shakllantirishi va kengroq geosiyosiy maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qilishi mumkin. Shuning uchun ham u birinchilardan bo'lib mafkuraviy ma'nolarni bir mamlakatga, muayyan bir mintaqaga, global miqyosda insoniyatga taalluqli geopolitik maqsadlar bilan birlashtirdi.

Agar mafkura jamiyatning nazariy g'oyalar tizimi bo'lsa, milliy mafkura – bu tizimni har bir fuqoro ongiga singdirish, ularda g'oyaviy bo'shliq paydo bo'lishining oldini olish jarayonidir. Shu o'rinda milliy mafkura, milliy g'oya tizimining tarixiy shakllanishiga e'tibor beradigan bo'lsak, ularni asosan obyektiv, subyektiv, ichki va tashqi sabablarga ajratish mumkin.

Yetmish yildan ortiq davr mobaynida hukumronlik qilgan SSSR davlatining parchalanishi natijasida mustaqil O'zbekiston davlatining paydo bo'lishi va uning Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan xalqaro hamjamiyatning mustaqil subyekt sifatida tan olinishi, yakka hukumron bo'lgan kommunistik mafkuraning inqirozga uchrashi sababli o'zbek xalqining ma'naviy hayotida g'oyaviy bo'shliq paydo bo'la boshlashi, vujudga kelayotgan g'oyaviy bo'shliqni yangi milliy g'oya va mafkura bilan to'ldirilmasa, uning o'rmini turli xil yomon maqsadlarni ko'zlagan g'oya va mafkuralar egallashi, buning natijasida xalqimiz hayotiga ma'naviy tahdid solish xavfi kuchayishining oldini olish, mustaqil O'zbekistonni o'zining vatani deb bilgan barcha elat, millat va xalq vakillarini turli mafkuraviy buzg'unchiliklardan asrab, ularning tinch-totuv yashashlarini kafolatlaydigan jamiyatni barpo etishga xizmat qiluvchi bunyodkor g'oya va mafkuralar bayrog'i ostida birlashtirish ishlarini amalga oshirish, O'zbekiston xalqining ehtiyoj va manfaatlaridan kelib chiqqan holda, ularning erkin va farovon hayot kechirishini ta'minlaydigan jamiyatni barpo etish sari boshlab boruvchi yangi milliy g'oya va mafkuralar tizimini yaratishga ehtiyoj sezildi. Shu asosda, mustaqil O'zbekistonni birlashtiruvchi va xalqning erkin, farovon hayotini ta'minlovchi yangi milliy g'oya va mafkura tizimini yaratish zarurati tug'ildi.

O‘z vatanining tarixidan faxirlanish, milliy qadriyatlarni e‘zozlash va davlat ramzlariga bo‘lgan ehtirom – mafkuraviy tarbiyaning poydevoridir. Bu tuyg‘u shunchaki hissiyot emas, balki “Men shu yurtning farzandiman va uning taqdiri uchun ma’sulman” degan qat’iy pozitsiyani shakllantiradi. “Yashab turgan joyidagi osoyishtalik uchun har bir rahbar, har bir fuqoro, butun jamoatchilik ma’suldir. Ichimizdan chiqqan aqli qusurlar, qalbi majruhlar bo‘lmasa, bizni chetdan kelib hech kim yenga olmaydi” deya ta’kidlagan O‘zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Islom Karimov. Yoshlarning milliy mafkurasini, ma’naviy tarbiyasini kuchaytirish turli chora tadbirlarda o‘z aksini topmoqda desak adashmagan bo‘lamiz. Xususan, 2008 - yilning “Yoshlar yili” deb e’lon qilingani ham buning yana bir yorqin hayotiy-amaliy ifodasi bo‘ldi. Shu munosabat bilan qabul qilingan Davlat dasturi doirasida yoshlarning manfaatlarini yanada to‘liq ta’minlashga yo‘naltirilgan, ularning jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lishini kafolatlashga xizmat qiladigan huquqiy, iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy, g‘oyaviy-mafkuraviy tadbirlar tizimli tarzda amalga oshirilayotganini alohida ta’kidlash zarur.

Ma’naviy tarbiya yosh avlodning shaxsiyati, dunyoqarashi va qadriyat tizimini shakllantirishda asosiy omil hisoblanadi. U nafaqat axloqiy me’yorlar va ijtimoiy odatlarni singdiradi, balki yoshlarning mafkuraviy barqarorligini ta’minlashda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Shu jihatdan, ma’naviy tarbiya – mafkuraviy immunitetning asosiy tayanchidir.

Tarixiy va zamonaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ma’naviy tarbiya orqali shakllangan qadriyatlar tizimi yoshlarning hayotiy qarorlarida barqarorlikni ta’minlaydi, ularni turli zararli g‘oyalar va noto‘g‘ri axborotdan himoya qiladi. Masalan, Abu Ali Ibn Sino o‘z asarlarida inson ruhining rivojlanishida ma’naviy tarbiyaning ahamiyatini alohida ta’kidlaydi. “Nasihah al-Muluk” asarida u yoshlarni axloqiy kamolot va tafakkur asosida tarbiyalash, milliy va ijtimoiy qadriyatlarni hurmat qilishga o‘rgatish zaruriyati haqida yozadi. Ibn Sino fikricha, inson ongini shakllantirishda axloqiy va ma’naviy me’yorlar alohida o‘rin tutadi.

Alisher Navoiy esa o‘z asarlari, xususan “Mahbub al-Qulub”da yoshlarni ma’naviy kamolotga yetkazish, milliy qadriyatlarni anglashi va axloqiy barqaror bo‘lish zarurligini ta’kidlaydi. Navoiy nazariyasida yoshlarning tarbiyasi nafaqat bilim va ko‘nikmalarni, balki iymon, axloq va milliy o‘zlikni shakllantirishga qaratilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev: “Bugungi notinch va tahlikali zamonda yoshlarning ongi va qalbini egallashga qaratilgan turli xavf-xatarlar tobora kuchayib borayotganini barchangiz yaxshi bilasiz. Ularga qarshi kurashishda xalqimizning boy tarixi va madaniyati, buyuk ajdodlarimiz jasorati, jonajon O‘zbekistonimizning milliy manfaatlarini biz uchun kuch-qudrat manbai bo‘lib xizmat qiladi”. Ma’naviy tarbiya va milliy mafkura yoshlar ongini shakllantirish va ularning mafkuraviy

immunitetini mustahkamlashda asosiy vosita ekanligiga yuqorida keltirilgan ajdodlarimizning buyuk asarlari yorqin misol bo'la oladi. Ibn Sinoning qadriyatli tarbiyasi orqali shakllangan inson modeli o'tmishda jamiyatning axloqiy va ma'naviy barqarorligini ta'minlagan bo'lsa, bugungi kunda yoshlarni axborot xavfsizligi, internet etikasi va digital madaniyat asosida tarbiyalash ham ularni ma'naviy jihatdan mustahkamlash va jamiyatdagi salbiy ta'sirlardan himoya qilishga xizmat qiladi. Shu tarzda, qadimiy axloqiy kodekslar va zamonaviy ma'naviy strategiyalar bir-birini to'ldirib, yoshlarning ongini shakllantirishda davomiylikni ta'minlaydi.

Bugungi dunyo axborot texnologiyalari orqali global raqobat maydoniga aylangan. Elektron axborot oqimlarining ochiqligini hisobga oladigan bo'lsak, muayyan kuchlar manfaatlariga xizmat qiluvchi shovinizm, diniy ekstremizm, fundamentalizm va neokommunizm kabi zararli oqimlardan chetda qolishning deyarli iloji yo'q. Ayniqsa, mintaqaviy va xalqaro terrorizmning axborot makonidagi yangi shakllari yoshlarning hali to'liq shakillanmagan dunyoqarashini o'zining asosiy nishoniga aylantirmoqda. AQShning sobiq prezidenti J.Karter ham "Targ'ibotga sariflangan 1 dollar, qurollanishga sariflangan 10 dollardan samaraliqroq" deb ta'kidlagan edi. Bugungi raqamli asr bizga cheksiz imkoniyatlar bilan bir qatorda, jiddiy sinovlarni ham olib kelayotgani sir emas. Raqamli platformalar orqali keng miqyosda soxta axborotlar, ekstremistik va radikal kontentlar, manipulatsiya, madaniy ekspansiya orqali yoshlar ongiga begona g'oyalar, psixologik ta'sir o'tkazilmoqda. Xalqaro telekommunikatsiya ittifoqi ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'yicha 15-24 yoshdagi yoshlarning qariyb 79 foizi internetdan faol foydalanadi, bu esa yoshlarning axborot makonidagi eng faol ijtimoiy qatlam ekanini ko'rsatadi. O'zbekiston kontekstida mavjud statistikalariga e'tibor qaratadigan bolsak, 2022-yilda internetdan foydalanish darajasi 83,9 % bo'lgan bo'lsa, 2023-yilda u 89 %ga oshdi, ya'ni bir yil ichida 5,1 foizlik o'sish kuzatildi. 2024-yilda esa ko'rsatkich 93,3 %ga yetib, 2023-yilga nisbatan yana 4,3 foizlik o'sish qayd etildi. Bu o'sish O'zbekiston aholisi orasida internetning tobora keng tarqalayotganini, ayniqsa yoshlar uchun axborot va raqamli resurslarga kirish imkoniyati ortayotganini ko'rsatadi. UNICEF tomonidan o'tqazilgan tadqiqotlarga ko'ra, yoshlar orasida faqat 25,4 % ijtimoiy va kasbiy maqsadlarda internetdan foydalanganligi qayd etiladi. Bu statistik natijalar yoshlar orasida internetdan foydalanish sur'ati yuqori bo'lsa-da, foydalanish samaradorligi, media savodxonlik va kunlik faollik darajasi har doim ham ideal emasligini ko'rsatadi.

Bugungi kunning muammolari faqat innovatsiyalarni boshqarish bilan cheklanmaydi. Aslida, masala ancha murakkab bo'lib, haqiqat va yolg'on, qadriyat va manfaat, erkinlik va nazorat o'rtasidagi nozik muvozanat bilan bog'liq. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning quyidagi fikrlari dolzarb yo'nalish sifatida xizmat qiladi: "Hammamizga ayonki, bugungi murakkab

globalashuv davrida jamiyatimizda milliy g'oya va mafkuraviy immunitetni kuchaytirish, yoshlarimizni turli zararli g'oya va tahdidlardan asrash, ularni o'z mustaqil fikriga ega, irodali, fidoyi va vatanparvar insonlar etib tarbiyalash har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda" Shu nuqtai nazardan, haqiqatni saqlash va himoya qilish mas'uliyati nafaqat jurnalistlar yoki olimlarga, balki har bir fuqaroga tegishlidir. Ushbu murakkab vaziyatni samarali yengish uchun uch tomonning uzviy hamkorligi zarur:

Ilmiy hamjamiyat — texnologiyalarni chuqur anglab, ularning jamiyatga ta'siri, axloqiy chegaralari va madaniy oqibatlarini ilmiy asosda tahlil qilishi, yangi nazariy konsepsiyalar ishlab chiqishi lozim.

Davlat siyosati — texnologik taraqqiyotni huquqiy, axloqiy va strategik chegaralar doirasida boshqarish, ularni suiiste'mol qilinishidan himoya qilish va fuqarolarning axborot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha aniq siyosat yuritishi kerak.

Jamoatchilik — texnologiyalarni tanqidiy baholay oladigan, mediatahlilga qodir, ongli va ma'naviy yetuk fuqarolar jamiyatini shakllantirish muhim. Haqiqatni yo'qotish nafaqat siyosiy yoki axborot sohasidagi muammo, balki axloqiy inqirozning boshlanishidir. Bunday inqiroz insonning qadriyatlariga, tafakkuriga va oxir-oqibat erkinligiga bo'lgan ishonchini yo'qotishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, texnologiyani to'g'ri boshqarish qobiliyatini saqlab qolish insoniyatning o'zligini himoya qilish bilan barobar keladi. Aytish joizki, O'zbekistonda mazkur jarayon huquqiy-meyoriy asoslar, davlat va jamoat institutlari faoliyati hamda milliy tajribaga xos yondashuvlar orqali tizimli ravishda amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson, uning huquqi va erkinliklari, ma'naviy kamoloti oliy qadriyat sifatida e'tirof etiladi. Shuningdek, 2016-yil 14-sentabrda imzolangan va 15-sentabrdan kuchga kirgan "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida" gi Qonun yoshlarning ma'naviy, intellektual va ijtimoiy rivojlantirishini taminlashni davlatning muhim vazifasi sifatida belgilaydi. Qonuning 5-moddasida yoshlarni axloqiy qadriyatlarini buzuvchi xatti-harakatlardan, shuningdek, terrorizm, diniy ekstremizm, separatizm, fundamentalizm, zo'ravonlik va shafqatsizlik g'oyalaridan himoya qilish yoshlar siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Shu bilan birga, ta'kidlash kerakki, mazkur qonunda ko'rsatilgan talablar Internet tarmog'ida tarqatiladigan axborotlarga ham to'liq taalluqlidir. Shuningdek, Respublikamizning bir qator qonunlari fuqarolarni, xususan, yoshlarni zararli axborotlardan himoya qilishga qaratilgan. Masalan, "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 7-moddasida axborotni noto'g'ri talqin qilish va soxtalashtirish taqiqlanishi belgilangan. Qonunning 14-moddasiga ko'ra esa, axborot vositalari orqali ijtimoiy ongga noqonuniy ruhiy ta'sir o'tkazish yoki odamlarni

chalg'itishga yo'l qo'yilmayd. Bundan tashqari, "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunning 16-moddasida pornografik, zo'ravonlik yoki shafqatsizlikni targ'ib qiluvchi, inson qadr-qimmatini tahqirlovchi va bolalarga zarar yetkazuvchi ommaviy axborot vositalaridan foydalanish, shu jumladan bunday adabiyotlarni tarqatish va filmlarni namoyish etish qat'iy taqiqlanishi qayd etilgan. Shuningdek, "Axborotlashtirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni hamda butunjahon Internet tarmog'ida axborot xavfsizligini mustahkamlash, shuningdek, axborot sohasida shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilish maqsadida, Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 5 sentyabrdagi 707-sonli qarori qabul qilindi. Bu qaror "Butunjahon Internet tarmog'ida axborot xavfsizligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari" deb nomlanadi.

Qarorga ko'ra quyidagi axborotlarni tarqatish taqiqlanadi:

O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumini yoki hududiy yaxlitligini zo'rlik bilan o'zgartirishga chaqiruvchi materiallar;

Urush, zo'ravonlik, terrorizm, diniy ekstremizm, separatizm yoki fundamentalizm g'oyalarini targ'ib qiluvchi ma'lumotlar;

Davlat siri yoki qonun bilan himoyalangan boshqa sirli ma'lumotlarni oshkor etish;

Milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovatni qo'zg'atuvchi, shaxsiy hayotga aralashuvchi yoki fuqarolarning obro'-e'tiboriga zarar yetkazuvchi axborotlar;

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va ularning prekursorlarini targ'ib qiluvchi materiallar ha pornografik mazmundagi ma'lumotlar. Ushbu qarorlar axborot xavfsizligini mustahkamlash hamda shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi. Natijada, tashqi kuchlarning millat tarixi, ma'naviyat va madaniyatini yo'qotishga qaratilgan targ'ibotlari samarasiz qolmoqda.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, bugungi globallashtirish va axborot texnologiyalari shiddat bilan rivojlanayotgan davrda yoshlar o'rtasida mafkuraviy immunitetni shakllantirish — shunchaki ma'rifiy-pedagogik jarayon emas, balki davlatning milliy xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan strategik ustuvor vazifadir.

Tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, milliy mafkura va ma'naviy tarbiyaning uzviyligi yosh avlodni nafaqat tashqi g'oyaviy ekspansiyalardan himoyalaydi, balki ularda axborot oqimini saralash, tahlil qilish va yot qarashlarga nisbatan tanqidiy munosabatda bo'lish ko'nikmasini hosil qiladi. Bu jarayonda tarixiy meros, ajdodlarimizning falsafiy va axloqiy o'g'itlari hamda zamonaviy davlat dasturlari yoshlar dunyoqarashining fundamenti bo'lib xizmat qiladi.

Binobarin, zamonaviy geosiyosiy tahdidlar sharoitida faqatgina texnologik filtrlar yoki ma'muriy choralar bilan cheklanib bo'lmaydi. Eng samarali "himoya qobig'i" — bu shaxsning ichki e'tiqodi va ma'naviy dunyosidir. Shuning uchun ham yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va ularning ijtimoiy barqarorligini ta'minlash orqali biz nafaqat bugungi kunning mafkuraviy xurujlariga javob beramiz, balki jamiyatning intellektual va g'oyaviy daxlsizligini kafolatlaydigan mustahkam tizimni barpo etgan bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Бжезинский З. Вне контроля: глобальный беспорядок накануне XXI столетия. – Нью-Йорк, 1993.
2. Yaxshilikov J.Ya., Muhammadiev N.E. Milliy g'oya va mafkura: monografiya. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "Fan" nashriyoti, 2015
3. Zakurlaev A.K. O'zbekiston rivojiga tahdid solayotgan g'ayriqonuniy diniy oqim va terrorchilik tashkilotlari: Tariqatchilik, asl va mohiyat. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi IIV nashriyoti, 2010.
4. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari: o'quv qo'llanma / mas'ul muharrir A. Ochildiev. – Toshkent, 2008.
5. Hanif, M. (2023). Philosophical Review of Avicenna's Islamic Education Thought. Asian Journal of Engineering, Social and Health, 2(6), 1–16. Philosophical Review of Avicenna's Islamic Education Thought | Asian Journal of Engineering, Social and Health
6. Uzaqova, L. A. (2025). The Educational Significance of Moral Values in the Works of Alisher Navoi. ILM-FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI, Vol. 9 No. 01. The Educational Significance of Moral Values in the Works of Alisher Navoi | ilm-fan yangiliklari konferensiyasi
7. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. Tom 3. –T.: O'zbekiston, 2019.
8. Yangi O'zbekiston: ilmiy tadqiqotlar: respublika ko'p tarmoqli ilmiy masofaviy konferensiya materiallari to'plami (76-son, 2-qism, 31-may 2025 y.). – Toshkent : Tadqiqot, 2025. conferences.uz/plugins/themes/bootstrap3/pdf/conf_76_2025/May_conf_2025_76-2.pdf
9. Jean-François Lyotard. The Postmodern Condition: A Report on Knowledge. Trans. Geoff Bennington and Brian Massumi. Minneapolis: University of Minnesota Press, 1984.
10. O'zbekiston Respublikasi. (2016). Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risidagi Qonun. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi. O'RQ-406-сон 14.09.2016. Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida

11. International Telecommunication Union (ITU). Facts and Figures 2024: Youth Internet use. ITU Digital Development Reports. <https://www.itu.int/itu-d/reports/statistics/2024/11/10/ff24-youth-internet-use>
12. O‘zbekiston Milliy statistika qo‘mitasi. O‘zbekiston aholisining internetdan foydalanishi. Stat.uz, 29-09-2025. <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/64211-zbekiston-a-olisining-94-2-foizi-internetdan-fojdlanadi-2>
13. UNICEF. Situation Analysis of Children and Adolescents in Uzbekistan. UNICEF:Uzbekistan,2024. https://www.unicef.org/uzbekistan/en/media/6691/file/Situation_Analysis_of_Children_and_Adolescents_in_Uzbekistan
14. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”, 7- va 14-modda, 23.03.2020. <https://lex.uz/acts/52268>
15. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”, 16-modda, 23.03.2020. <https://www.lex.uz/acts/1297315>
16. O‘zbekiston Respublikasi “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi qonuni. <https://lex.uz/mobileact/83472>.